PEDAGOGIKA

UDK: 371.65 DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss5/a11

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI MUZEY PEDAGOGIKASI FAOLIYATIGA TAYYORLASH BO‘YICHA XORIJIY TAJRIBALAR

ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ К МУЗЕЙНОЙ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

FOREIGN EXPERIENCE ON PREPARATION OF FUTURE TEACHERS FOR THE ACTIVITY OF MUSEUM PEDAGOGY

[1]Marayimova Kibriyoxon Islomjon qizi
[1]Farg‘ona davlat universiteti katta o‘qituvchisi, p.f.b.f.d.(PhD)

Annotatsiya

Ushbu maqolada muzeyning ta’lim muassasalari bilan hamkorligi hamda pedagogika universitetlarida bo‘lajak o‘qituvchilarni muzey pedagogikasi faoliyatiga tayyorlash bo‘yicha AQSh, Germaniya va Rossiya davlatlari tajribalari yoritib berilgan va Pedagogika universitetlarida tayyorlanuvchi bo‘lajak o‘qituvchilar "muzey pedagogikasi" faoliyatiga oid ega bo‘lishi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar hususida fikr yuritilgan.

Аннотация

В данной статье описано сотрудничество музея с учебными заведениями и опыт США, Германии и России по подготовке будущих преподавателей педагогических вузов по музейной педагогике, а также высказаны мысли о знаниях, умениях и квалификации, которыми должны обладать будущие педагоги, обучающиеся в педагогических вузах относительно деятельности «музейной педагогики».

Abstract

In this article, the interaction of the museum with educational institutions, as well as the experiences of the USA, Germany and Russia on the preparation of future teachers in pedagogical universities for the activity of museum pedagogy were highlighted and opinions were given on future teachers preparing at pedagogical universities about the knowledge, skills and qualifications that should be acquired for the activity of "museum pedagogy".

Kalit so‘zlar: *muzey pedagogikasi, muzey va talim muassasasi hamkorligi, "ish kitobi", ta’lim dasturlari, ilmiy-tadqiqot ishlari, metodika va tajriba ishlari.*

Ключевие слова: *музейная педагогика, сотрудничество музея и образовательного учреждения, " рабочая тетрад", образовательние программи, научно-исследовательские работи, методические и экспериментальние работи.*

Key words: *museum pedagogy, cooperation of museum and educational institution, "work book", educational programs, research works, methodology and experimental works.*

KIRISH

Bugungi kunda ta’lim yoki ijtimoiy-madaniy hordiq chiqarish faoliyatini muzey tarkibiy qismisiz tasavvur qilish qiyin, shuning uchun muzeyning ijtimoiy-madaniy, ma’rifiy faoliyatini biladigan malakali mutaxassissiz bu sohani chuqur o‘rganish va undan unumli foydalanish mushkul. Ta’kidlash joizki, ushbu murakkab vazifa o‘quvchilarni muzey materiallari asosida o‘qitish va tarbiyalash, shuningdek ularning nazariy tushunchalarini boyitish orqali muzey muhiti va o‘quv muassasasida pedagogik muammolarni hal qilishga qodir o‘qituvchilarni tayyorlashni ta’minlaydigan yangi pedagogik yo‘nalish, ya’ni muzey pedagogikasi doirasida muvaffaqiyatli hal etilmoqda.

Muzeyda ham, maktabda ham teng muvaffaqiyat bilan ishlay oladigan mutaxassislarni tayyorlash g‘oyasi XX asr boshlarida vujudga keldi. Muzey kolleksiyasi tashrif buyuruvchilarga turli bilim sohalarining ichki aloqalarini taqdim eta oladi. Bu hol asosan muzey xodimi va maktab o‘qituvchilarining kasbiy tafakkurining o‘ziga xos xususiyatlarini belgilaydi.[1,13b] Muzeyda mustaqil ishlash uchun o‘qituvchilarning amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazishdagi kamchiliklari mavjud bo‘lib, ular quyidagilardir:

- xozirgi kunga qadar o‘qituvchilarga muzeyning ta’lim-tarbiyaning samarali vositasi sifatidagi o‘rni noma’lum bo‘lib qolmoqda ;
- o‘qituvchilar tasviriy san’at sohasida yetarli darajada bilimga ega emaslar va haqiqiy san’at asari bilan muloqot qilishning juda cheklangan dastlabki tajribasi bor, shuning uchun ular muzey muhitida ijtimoiy-psixologik moslashishni qiyinlik bilan boshdan kechiradilar;
- ko‘pincha, o‘quvchilarni muzey kompozitsiyasi bilan tanishtirishda birinchi o‘ringa badiiy asar qo‘yilmaydi, balki bu haqda umumiy ma’lumot beriladi.

Shuning uchun ta’limni modernizatsiyalashning dolzarb vazifalaridan biri bo‘lajak o‘qituvchilarni muzeylar bilan o‘quv faoliyati sohasida bevosita aloqalarga ega bo‘lgan pedagogika oliy o‘quv yurtlarida tayyorlash lozim. Muzeylarda tashkil etilgan turli o‘quv kurslari, amaliyot va seminarlar bu vazifani faqat qisman bajarishi mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILIVA METODLAR

Bugungi kunga kelib Amerika Qo‘shma Shtatlari bo‘lajak o‘qituvchilarni muzey pedagogikasiga kasbiy tayyorlashning zamonaviy tajribasiga ega. Bu sohada mutaxassislar bir qancha oliy o‘quv yurtlarida (Vashington, Los-Anjeles va Janubiy Karolina universitetlarida) tayyorlanadi. Ular orasida Vashington universiteti alohida o‘ringa ega, unda muzeylar bilan hamkorlikda yaratilgan muzey pedagogikasi bo‘limi bizning fikrimiz bo‘yicha Qo‘shma Shtatlardagi birinchi bo‘lgan professional kursni ishlab chiqdi. O‘quv dasturi oliy ta’limning ikkinchi darajasi-magistraturaga mo‘ljallangan. Bu shuni anglatadiki, bakalavr darajasiga ega bo‘lgan talabalar tasviriy san’at, muzeyshunoslik va tegishli gumanitar va tabiiy fanlar bo‘yicha kompetentsiyalarga ega bo‘ladi. O‘qitishning yangi bosqichida talabalar psixologiya, sotsiologiya, ta’lim nazariyasi va amaliyoti sohasida kasbiy bilimlarga ega bo‘ladilar, muzey va pedagogik faoliyatda ilmiy-tadqiqot olib borish ko‘nikma va malakalarni egallaydilar.

O‘qituvchining muzeyda mustaqil ishlashga tayyorgarligiga quyidagilar turtki bo‘ladi:

- o‘qituvchi orqali muzey bolalar auditoriyasiga ta’sir ko‘rsatish imkoniyatini qo‘lga kiritadi;

-o‘qituvchi o‘quvchini muzeydagi san’atni idrok etishga tayyorlay olishi pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq bo‘ladi;

- o‘quvchilarning gumanitar tayyorgarlik darajasini bilgan holda, o‘qituvchi ularning badiiy madaniyatini shakllantirish jarayoniga yaxshi ta’sir ko‘rsatishi mumkin;

- muzey o‘qituvchilari muzeyda ham, maktabda ham amalga oshirishga mo‘ljallangan maxsus dasturlarni ishlab chiqishga e’tibor qaratish imkoniga ega.

Bu amaliyot davlat va jamoat tashkilotlari tomonidan keng qo‘llab-quvvatlanmoqda, chunki u ta’lim tizimidagi ijobiy o‘zgarishlarga o‘z hissasini qo‘shmoqda. Shu munosabat bilan Amerika muzeylarining aksariyati o‘qituvchilarning badiiy madaniyatini rivojlantirish va ularni turli yo‘nalishdagi muzeylarda ishlashga tayyorlash dasturlarini ishlab chiqadi. Bu dasturlar ko‘pincha muayyan o‘quv predmetining majburiy tarkibiy qismi sifatida yaratiladi va maktablarda amalga oshirish uchun mo‘ljallangan. Ular o‘qituvchilar uchun turli o‘quv kurslari taqdim etadi va o‘qituvchiga darsni o‘tkazishga ko‘maklashuvchi darslarning metodik ishlanmalari, axborot materiallari to‘plamlari hamda o‘qituvchiga vaqtinchalik foydalanish uchun beriladigan metodik qo‘llanmalarni o‘z ichiga oladi ("o‘qituvchi paketlari"). Ushbu qo‘llanmalarda ko‘rsatmalar, turli diagramma va jadvallar, audio va video materiallar hamda slaydlar mavjud.

Qo‘shma Shtatlardagi barcha yirik muzeylarda keng qamrovli o‘quv kutubxonalari mavjud. O‘qituvchilar, muzey xodimlari va ularning yordamchilari-muzey ko‘ngillilari bu yerda darslarga tayyorgarlik ko‘rish va maslahat olish imkoniga ega. Amerika muzeylarida o‘qituvchi tayyorlash 1994-yilda qabul qilingan badiiy fanlarni o‘qitish bo‘yicha milliy standartlar maqsadlariga javob beradi, bu esa maktabda o‘quvchilarni san’atga o‘rgatishning amaliy ahamiyatini ortishiga imkon beradi[2,183 b].

Germaniyadagi muzey va talim muassasasi o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar o‘qituvchiga muayyan o‘quv vazifalarini hal etishga yordam berishga asoslangan. Shu ma’noda san’at muzeyi ham bundan mustasno emas. Har qanday boshqa turdagi muzeylarda bo‘lgani kabi o‘qituvchi bu yerda ham "ekspert" vazifasini bajaradi, ya’ni kasbiy vazifalari asosida o‘quvchining xulqi va bilimini nazorat qilgan holda muzey-pedagogik jarayonining vosita va mazmunini tanlaydi. Maktab o‘quvchilarining mustaqil ishlariga metodik rahbarlik qilish, ularga maxsus "ish kitobi" (rabochaya tetrad) yaratishga yordam berish katta o‘rin tutadi [2,180 b].

Ularning mavzusi maktab o‘quv dasturiga hamohang bo‘lib, o‘qituvchi va muzey xodimiga bolalarning ma’lum mavzular bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini chuqurlashtirish va kengaytirish imkonini beradi. Odatda, "ish kitobi" uch qismdan iborat bo‘lib, muzey xodimlari tomonidan o‘qituvchilar bilan maslahatlashgan holda yaratiladi. Ulardan biri darsda foydalanilgan yodgorliklar haqida qisqa ma’lumot bo‘lsa, ikkinchisi o‘qituvchi va o‘quvchining birgalikdagi ishiga qaratiladi. O‘quvchi tomonidan topshiriqlarni bajarish maktabda olgan bilimlarini chuqurlashtirish imkonini beradi. "Ish kitobi"ning yana bir vazifasi o‘qituvchiga muzey ekspozitsiyasi tilini o‘rganish va muzey asl nusxalarini tarixiy yoki badiiy ahamiyati jihatidan baholashga yordam berishdan iborat.

Umuman olganda, ta’lim jarayonida "ish kitobi" ning maqsadi:

- muzey o‘qituvchilari tomonidan tanlangan yodgorliklarga o‘quvchilar e’tiborni qaratish;
- muzey yodgorligining qadr-qimmatini anglashga ko‘maklashish;
- bolani faollashtirishning turli usullaridan foydalanib, ijodkorlikka undash;
- o‘quvchilarning fazoviy tasavvurlarini shakllantirish, yodgorliklarni qiyosiy tahlil qilish usullaridan foydalanishni o‘rgatish;
- namoyish etilayotgan obyektlarga o‘z munosabatini bildirish ko‘nikmasini rivojlantirish.

Shunday qilib, muzeyning Germaniyadagi maktab bilan o‘zaro aloqasi avvalo muzey faoliyatining maktab o‘quv jarayoniga bo‘ysunishi va muzey materialini ishlab chiqishda o‘qituvchining yordami bilan belgilanadi. Bu o‘zaro ta’sirda o‘ziga xos topilma o‘qituvchining muzey yo‘nalishini rivojlantiruvchi "ish kitobi" ni ishlab chiqish va ulardan foydalanish bo‘ldi.

Rossiyada bu sohadagi ixtisoslashuv qariyb o‘n yildan buyon madaniyat oliy o‘quv yurtlarining muzeyshunoslik fakultetlarida "Muzeylarni boshqarish va yodgorliklarni muhofaza qilish-tarix va madaniyat" mutaxassisligi bo‘yicha amalga oshirilmoqda. Biroq, an’anaviy muzey, san’at yoki pedagogik ta’limning cheklangan doirasida o‘qitish muayyan kamchiliklarga ega bo‘lib, zamonaviy talablarga javob bermaydi, chunki u tasviriy san’at, psixologiya sohasida yetarli darajada bilim bermaydi va muzey muhitining o‘ziga xos xususiyatlarini to‘laqonli ochib bermaydi.

Muzeyga tashrif buyuruvchilar bilan ishlashga yangicha yondashuvlarni izlab, muzeylar so‘nggi yillarda ta’lim muassasalari va pedagogika universitetlari bilan yangi, tizimli hamkorlik darajasiga erishish imkonini beradigan ta’lim xizmatlarini qayta tuza boshlaganida vaziyat o‘zgara boshladi.

1989 yilda Rossiya muzey pedagogikasi va bolalar ijodiyoti markazi tashkil etildi. Muzey amaliyotida birinchi marta dunyodagi eng yirik muzeylardan biri muzey va o‘quv majmuasiga aylantirildi, bu esa muzey tashabbusi bilan madaniyat va ta’lim sohalari o‘rtasidagi fanlararo o‘zaro aloqalar tizimini ishlab chiqishga kirishish imkonini berdi. [3,34 b] Uning jamoasiga san’atshunoslar, o‘qituvchilar, psixologlar, rassomlar, teatr mutaxassislari, o‘rta va oliy maktab xodimlari kiradi.

Muzeyning ta’lim muassasalari bilan hamkorligi tajribasi Rossiya muzeyida barcha darajadagi san’at va gumanitar ta’limning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, ta’lim muassasalari bilan o‘zaro aloqalar darajalari va yo‘nalishlarini aniq tashkil etishi kerak bo‘lgan tizimni ishlab chiqishga imkon berdi. Amaliyot shuni ko‘rsatdiki, muzeyda tasviriy san’atni joriy etishning eng samarali modeli muzey-pedagogik dasturlari bo‘lib, muayyan san’at muzeyining o‘ziga xos xususiyatlarini va zamonaviy pedagogik usullarni uyg‘unlashtirgan holda ishlab chiqilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Bo‘lajak o‘qituvchilar tayyorlanadigan yo‘nalishlarning davlat ta’lim standartlari tahlil etilganda muzey pedagogikasi, muzeyshunoslik va san’at tarixi fanlari integratsiyasiga oid muhim mavzular kiritilmaganligi aniqlandi:

- muzey va ta’lim muassasasi hamkorligining mohiyati va shakllari;
-ko‘rgazmali tafakkurning mohiyati va uning shaxs shakllanishi uchun muzey-pedagogik usullari bilan rivojlanishining ahamiyatini fanlararo tushunish;
- muzey pedagogikasi sohasida ilmiy-tadqiqot ishlari ;
- bolalar ijodiyotining o‘ziga xos xususiyatlari;
- zamonaviy muzeyda Art terapiya(sanat orqali davolash).

Oliy ta’lim muassasalari bo‘lajak o‘qituvchilarni muzey-pedagogikasi faoliyatiga tayyorlashni bakalavriat yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarida amalga oshirishi va qayta tayyorlash uchun imkoniyat yaratishi kerak. Shuningdek, ularni o‘qitish pedagogika kollejlarida yoki madaniyat va san’at universitetlarida tashkil etilishi mumkin.

Pedagogika universitetlarida tayyorlanuvchi bo‘lajak o‘qituvchilar "muzey pedagogikasi" faoliyatiga oid quyidagi bilim, ko‘nikma va malakalarni ega bo‘lishi lozim:

- muzey va uning ijtimoiy-madaniy muassasalar tizimidagi o‘rni, muzey pedagogikasi tarixi haqida to‘liq tushunchaga ega bo‘lish;
- zamonaviy muzeydagi ta’lim jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari, muzey pedagogikasi umumiy pedagogik jarayonning bir qismi ekanligi xaqida tushunchaga ega bo‘lishi;
- muzey va pedagogik faoliyatning zamonaviy muzey biznesi rivojidagi o‘rnini, uning ta’limni insonparvarlashtirish, shaxs madaniyati va ijtimoiy munosabatlar madaniyatini shakllantirish muammolarini hal etishdagi ahamiyatini tushunish;

- ta’lim va madaniy tizimlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning umumiy va o‘ziga xos ehtiyojlarini aniqlay olish;

- muzey-pedagogik jarayoni davomida ushbu o‘zaro aloqalarni tashkil etish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;

- muzey pedagogikasining metodlari, shakl va texnologiyalarini bilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalana olish;

- muzey pedagogikasi nazariyasi va tarixiga oid bilimlar tizimini egallash;

- muzey o‘qituvchisining barcha muzeylarda va ta’lim muassasalarida kasbiy faoliyati uchun badiiy qobiliyati va estetik g‘oyalarini rivojlantirish zaruriyatidan xabardor bo‘lish;

- muzey-pedagogikasiga oid va maxsus adabiyotlarning birlamchi manbalarini bilish;

- muzey qadriyatlarini o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirish jarayonini samarali tashkil eta olish va muzeyga bo‘lgan qiziqishlarini muzey kommunikatsiyasiga tizimli kiritish zarurati darajasiga ko‘tara olish;

- muzey pedagogikasi sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlari, metodikasi va tajriba ishlariga oid ko‘nikma va malakalarini egallash.

Agar muzey xodimlarining ishlari maktab o‘qituvchilari faoliyatlari bilan aloqador tarzda hamkorlikda olib borilsa, muzeylarda o‘quvchilar ta’lim jarayonida uchratadigan, lekin hech qachon ko‘rmagan ekspozisiyalar bilan tanishadilar. Muzeylar ekspozisiyalari bilan ishlash jarayonida uning o‘ziga xos xususiyatlariga e’tibor berish muhim. Bunda quyidagilarga amal qilish zarur:

1. Muzeylardagi mashg‘ulotlar ma’lum ta’limiy va tarbiyaviy maqsadni amalga oshirishi zarur.

2. Tanlangan materiallar o‘quvchilarga tushunarli va ularning bilish faoliyatini rivojlantirishga mos kelishi muhim.

3. Mashg‘ulot uchun tanlangan ekspozitsiyalar ma’lum fanga doir mavzular bilan bog‘liq bo‘lishi maqsadga muvofiq.

4. Muzeylarda mashg‘ulotlar uchun tanlangan manbalar badiiy yuksak asarlar bo‘lishi kerak.

5. Muzeylar bilan aloqa muntazam, izchil bo‘lishi lozim.

Ma’lumki, har bir fan asosi u yoki bu ijtimoiy davrning muhim voqealari bilan bog‘lab o‘rganilganda, adabiyot, san’at, tarixiy voqealar o‘sha davrdagi muhim voqealar, adabiyot va san’at namoyondalarining o‘z zamonasida tutgan o‘rni, kiritgan yangiligi uning ijtimoiy hayot bilan bir qatorda rivojlanib, taraqqiy etganligi haqida ham ma’lumotlar beriladi. Shunga ko‘ra, maktab o‘qituvchilari va muzey xodimlari faoliyatida o‘zaro aloqadorlikni tashkil etishning o‘ziga xos didaktik talablari, yo‘nalishlari, tamoyillari va imkoniyatlari mavjud bo‘lib, bular pedagogikadagi an’anaviy metodikaga qaraganda innovatsion xarakter kasb etadi.

XULOSA

Yuqoridagi fikrlar asosida aytish mumkinki, muzey muhitida bolalar tarbiyalanadi, ya’ni estetik idrok etish, muzey madaniyati, badiiy did shakllanishi asosida tarbiya beriladi. Ijodkor shaxs kamolotga erishib rivojlanadi, shuningdek, muzey yodgorliklarini ko‘rish, eshitish, ma’lumot olish orqali bilish (ta’lim olish) faoliyati shakllanadi. Demak muzey va maktablar sharoitida pedagogik faoliyat – ta’lim-tarbiya va rivojlanishning yaxlit majmui bo‘lib, shaxsni estetik tarbiyalash, bilim berish va rivojlanishiga asos bo‘lib xizmat qiladi. Bularning barchasi muzey va ta’lim jarayonini o‘zaro aloqadorlikda olib borishda, o‘quvchilarni muzeylar vositasida ma’naviy merosga hurmat ruhida tarbiyalash, o‘z metodikasiga ega pedagog kadrlarni hamda ta’lim muassasalari rahbar kadrlarini tayyorlash va ularning malakasini oshirish kabi muhim sohalarni takomillashtirishda innovatsion yondashuvni taqozo etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. См.: Бойко А.Г. Опыт сопоставления профессионального сознания музейного и школьного педагога (к постановке проблемы) // Образовательная деятельность художественного музея. Вып. 4. СПб., 1995 С 13

2. Колесникова И.А. О феномене музейной педагогики // Художественный музей в образовательном процессе. СПб., 1998.

3. См.: Козиев В.Н. Школьники, учителя и студенты в Государственном Русском музее // Художественный музей в образовательном процессе. — СПб., 1998.

4. Медведева Е.Б., Юхневич М.Ю. Музейная педагогика как новая научная дисциплина // Культурно-образовательная деятельность музеев: Сб. тр. творч. лаборатории «Музейная педагогика» кафедры музейного дела. М., 1997.

5. Мышева Т.П Становление музея и музейной педагогики // Вестник Таганрогского гос пединститута 2006 № 2 С 129-133 - 0,5 п л.

6. Мышева Т.П Музейно-образовательная деятельность будущих социальных педагогов // Сбнаучтр «Теоретическиеи практические проблемы социальной педагогики» -Таганрог Изд-воТаганрог, госпединститута, 2001 С 121-125.-0,1 пл.

7. Селевко Г.К- Современные технологии образования. М.: Народноеобразование, 1998.

8. Столяров Б.А., Бойко А.Г. Художественный музей и система образования: концепция педагогического взаимодействия // Художественный музей в образовательном процессе. СПб., 1998.

9. Столяров Б.А. Музейная педагогика история, теория, практика- М.: Высш. шк., 2004 —180-183 с.